



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

HOZIRGI ZAMON INGLIZ TILIDA TURKIZMLARDA INTERFERENSIYA HODISASI

Nishonova Shaxnoza Muxammadjonovna

Qo'qon Davlat Universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya.

Mazkur maqolada tillarning aloqasi natijasida interferensiya hodisasi sodir bo'lishi masalalari atroflicha tadqiqotga tortilgan. Shu o'rinda aytish mumkin-ki, ikki (bilingv), uch (trilingv), va hatto ko'p tillilar (polilingvlar) nutqida, ularning birdan ortiq til bilan yaxshi tanishligi natijasida til meyorlariga bo'ysunmaslik va undan chetga chiqish holatlari yuz beradi. Bir tilning struktur-semantik unsurlarini, grammatik xususiyatlarini boshqa tilga to'g'ri-to'g'ridan ko'chirishga asoslanuvchi interferensiya hodisasi jamiyatda lisoniy-kommunikativ axborot almashuv davlatlar, millatlar, etnik guruhlar o'rtasida lingvomadaniy aloqalar kuchaygan sari tobora rivojlanmoqda hamda nutqiy amaliyotdan keng o'rin olmoqda.

Kalit so'zlar: interferensiya hodisasi, bilingv, trilingv, polilingv, lisoniy-kommunikativ, fonetik moslashish, paradigmatic, syntagmatic.

ЯВЛЕНИЕ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В ТЮРКИЗМАХ В СОВРЕМЕННОМ АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Нишонова Шахноза Мухаммаджоновна

преподаватель, Кокандский государственный университет

Аннотация.

В данной статье подробно исследуются вопросы возникновения явления интерференции в результате взаимодействия языков. При этом можно отметить, что в речи двуязычных (билингвов), трехязычных (трилингвов) и даже многоязычных (полилингвов) людей в результате их хорошего владения более чем одним языком возникают случаи несоблюдения языковых норм и отклонения от них. Явление интерференции, основанное на прямом переносе структурно-семантических элементов и грамматических особенностей одного языка на другой, все более развивается в обществе по мере усиления лингвокультурных связей между государствами, нациями и этническими группами, и занимает все более значимое место в речевой практике.

Ключевые слова: явление интерференции, билингв, трилингв, полилингв, лингво-коммуникативный, фонетическая адаптация, парадигматический, синтагматический.

THE PHENOMENON OF INTERFERENCE IN TURKISMS IN MODERN ENGLISH

Nishonova Shakhnoza Muhammadjonovna

Lecturer, Kokand State University

Annotation.

This article comprehensively investigates the phenomenon of interference that occurs as a result of language contact. It can be noted that in the speech of bilinguals, trilinguals, and even multilinguals, due to their familiarity with more than one language, instances of non-compliance with and deviation from language norms occur. The phenomenon of interference, based on the direct transfer of structural-semantic elements and grammatical features from one

language to another, is becoming increasingly prevalent in society as linguistic and communicative exchanges between states, nations, and ethnic groups intensify. Consequently, interference is occupying a significant place in speech practice.

Key words: interference phenomenon, bilingual, trilingual, multilingual, linguistic-communicative, phonetic adaptation, paradigmatic, syntagmatic.

Tillarning aloqasi natijasida ko‘pincha interferensiya hodisasi sodir bo‘ladi. Shu o‘rinda aytish mumkin-ki, ikki (bilingv), uch (trilingv), va hatto ko‘p tillilar (polilingvlar) nutqida, ularning birdan ortiq til bilan yaxshi tanishligi natijasida til meyorlariga bo‘ysunmaslik va undan chetga chiqish holatlari yuz beradi. Bir tilning struktur-semantik unsurlarini, grammatik xususiyatlarini boshqa tilga to‘g‘ri-to‘g‘ridan ko‘chirishga asoslanuvchi interferensiya hodisasi jamiyatda lisoniy-kommunikativ axborot almashuv davlatlar, millatlar, etnik guruhlar o‘rtasida lingvomadaniy aloqalar kuchaygan sari tobora rivojlanmoqda hamda nutqiy amaliyotdan keng o‘rin olmoqda. Bu jarayon eng eski davrlardan beri ozmi-ko‘pmi uchrab kelayotgan bo‘lsa-da, u XX asrdagi iqtisodiy-siyosiy, etnosiyosiy, madaniy-lingvistik aloqalar tufayli misli ko‘rilmagan ko‘lamlarga erishdi hamda milliy tillar taraqqiyotiga xavf solish darajasiga yetdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ayrim tadqiqotchilar boshqa tilga oid so‘zning qabul qiluvchi tilning normalariga fonetik moslashishini majburiy hodisa emas deb hisoblab, tilning ma‘lum normalariga bo‘ysunmaydigan so‘zlarni o‘zlashma so‘zlar, deb aytishadi. Masalan, ingliz tilida o‘zbekcha “x”, “j” alohida talaffuz normasiga ega bo‘lmaganligi uchun o‘zlashgan turkizmlar “kh” (khan), “zh” (Andizhan) sifatida qabul qilingan. Shuningdek, L.P.Krisin hozirgi rus tilida rus talaffuz tizimiga xos bo‘lmagan *djem, djemper, flang, shlang* va hokazo so‘zlar mavjudligi va ular tez-tez qo‘llanilishini ko‘rsatib o‘tadi [1,42].

Bunday hodisa deyarli barcha tillarda uchraydi. Misol uchun, qozoq tilining fonologik tizimida tish ishtirokida yuzaga keladigan “f” frikativ (sirg‘aluvchi) fonemasi yo‘q, ammo shunga qaramay, u rus tilidan yoki rus tili orqali o‘zlashtirilgan *fonar, ferma, fabrika* va h.k. kabi so‘zlarda muntazam foydalanadi.

Y.S.Sorokin o‘zlashtirayotgan tilning normalariga fonetik moslashish so‘zning tilda mustahkam o‘rnashib qolishining majburiy sharti emas, deb hisoblaydi hamda so‘zning tovush qiyofasi va shaklining to‘liq assimilyatsiyasi fakti emas, balki barqarorlik belgisi, bu shaklning bir xilligi va normallashtiruvchi, deb faraz qiladi [2,62].

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning qayd qilishlaricha, boshqa tilga oid leksema o‘zlashtirayotgan tilning tizimiga o‘tganda u tovush qobig‘ini qabul qiluvchi tilning meyorlariga muvofiq qayta o‘zgartiradi [3].

Boshqa tilga oid leksema o‘zlashtirayotgan tilning tizimiga qo‘shilganda o‘zining tovush tizimini qabul qiluvchi tilning normalariga muvofiq qayta o‘zgartiradi. Biz fikr yuritayotgan mazkur masalada ham o‘zlashtirilgan turkiy so‘zlar ingliz tilining tovush sistemasiga maksimal darajada fonetik jihatdan moslashgan. O‘zlashgan turkiy so‘zlar butunligicha o‘zining moddiy tovush qobig‘ida ingliz tiliga o‘tadi va o‘zlashtirayotgan tilning fonologik tizimiga, uning talaffuz qoidalariga, artikulyatsiyasiga, orfoepiyasiga moslashadi. So‘zning o‘z fonetik qobig‘ini o‘zgartirmagan holda o‘tishi kamdan-kam hollarda kuzatiladi, chunki o‘zlashtiruvchi tilning sohibi boshqa tilga oid so‘zni o‘z fonologik tizimi prizmasi orqali qabul qiladi. Bu masalada tilshunos olim B.O.Unbegaun ta’kidlab o‘tadi: “Juda kamdan-kam istisnalar bilan chet elliklar ruscha so‘zni uning tabiiy jaranglashida emas, balki o‘zlarining fonologik tizimiga mos keladigan tovushida yozib olishgan” [4,80].

Natijalar va muhokama. O‘zgarishlar paradigmatic (fonologik tizimlarning nomuvofiqligi), syntagmatic (fonemalar distribusiyasining har xil qoidalari, bo‘g‘inning

boshqa-boshqa strukturasi) va aksentologik jihatdan kelib chiqqan holda sodir bo'lishi mumkin.

Tilshunos olim O.Jumaniyozov "O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari"[5] nomli monografiyasida o'zlashma so'zlarning imlo va talaffuzi borasida alohida to'xtalib, biror chet so'z ikkinchi bir tilga qabul qilinadigan bo'lsa, qabul qiluvchi til uni, iloji boricha, manba tildagi imlo va talaffuz shaklini saqlab qolishi kerakligini uqtiradi. Bu tendensiya imlosi (shrifti) bir xil tillar uchun yozilishda qiyinchilik tug'dirmaydi, ayrim farqlar faqat o'qilishida bo'lishi mumkin. Ammo imlosi har xil shrift asosida ish ko'ruvchi tillarda bu masalaga birmuncha jiddiyoq qaramoq kerak. Chunki, avvalo, harf, qolaversa, tovushlarning bir-biriga o'xshamasligi so'zlarning transliterasiya masalasini biroz qiyinlashtirib qo'yadi. Shrifti har xil tillardagi o'zlashma so'zlarni imlo va talaffuzi kuzatiladigan bo'lsa, ularni asosan uch xil ko'rinishda tasavvur qilish mumkin:

1. Manba til yozuv harflarini qabul qiluvchi til yozuv harflari bilan (transliterasiya yo'li) ifodalash.

2. Manba til nutq tovushlarining qabul qiluvchi til nutq tovushlarining belgi va harflari bilan (transkripsiya yo'li) ifodalash, ya'ni o'zlashma so'zni manba tilda aytilishiga asosan qabul qilish.

3. Manba til nutq tovushlariga qabul qiluvchi tilda mos tovush bo'lmay qolib, uni boshqa yoki o'xshashroq tovush bilan qabul qilish. Shuningdek, O.Jumaniyozov o'zbek tiliga kelguncha, avvalo, rus tilida

muayyan imlo va talaffuz shakllarini olishgan va shu asosda o'zbek tiliga o'tib kelishgani, keyingi davrda (1940 yildan keyin) rus va o'zbek tillarining kirill shriftida, bir xil yozuvda bo'lishi va rus- internasional terminologiyasini o'zbek tiliga buzmasdan, o'z holicha olish an'analari german tillariga oid so'zlarni xuddi rus tilida yozilish va aytilish shakllarining saqlanishiga olib kelgani, faqat og'zaki nutqda talaffuz borasida ayrim o'zbeklashtirish holatlarini kuzatish mumkinligini aytib, o'zbek tiliga o'tgan german tillaridagi so'zlarni 1) german tillari yozuv harflarini o'zbek tili yozuv harflari bilan qabul qilingan: a) imlosi va talaffuzi aynan va o'xshash; b) imlosi o'xshash, ammo talaffuzi boshqacha so'zlar: 2) german tillari nutq tovushlarining o'zbek tili nutq tovushlari belgi va harflari bilan aks ettirilgan; 3) german tillari nutq tovushlariga o'zbek tilida mos tovush bo'lmay, uni boshqa yoki o'xshash tovushlar bilan qabul qilingan o'zlashmalarga tasniflaydi.

Yuqorida aytganimizdek, fonemalar va ular orasidagi muvofiqliklar turli tillarda bir xil emas. Shuning uchun turli tillarda o'xshash yoki differensial belgilarga ega bo'lgan fonemalarni adekvat deb hisoblash mumkin emas, chunki ular boshqa fonologik tizimning elementlari hisoblanadi hamda turli fonologik oppozitsiyalarda ishtirok etadi. Shuning uchun ba'zan boshqa tilda adekvat muvofiqlikka ega bo'lgan tovushlar kutilmagan o'zgarishlarga duch kelish mumkin yoki ularni ifodalashda ikkilanishlar kuzatilishi mumkin.

Ba'zi bir tovushlarni boshqa til vositalari bilan ifodalashda ba'zan o'xshash artikulyatsiyali tovushlarni shartli ravishda bir-biriga muvofiq kelishini ko'rish mumkin va bu ularni transkripsiyasida aks etadi, lekin ular talaffuzda farqlanadi.

Misol uchun turkcha /r/ va inglizcha /r/ fonetik xususiyati jihatidan bir xil fonema va tovushlar emas.

Bunday o'xshashliklar sintagmatik omillarga, masalan, fonemaning so'zdagi pozitsiyasi (ochiq yoki yopiq bo'g'in)ga bog'liq. Masalan: *kashgar* [kæfɡa:] (yopiq bo'g'in); *odalisque* [oudəliʃk] (ochiq bo'g'in). Masalan:

Since the Kashgar Gates were near the urda, many soldiers had congregated nearby. (A.Qodiriy. Bygone days. – P. 164)

... one ranking next to the four legal wives, in Turk! audaliq, rhence odalisque. (The Bābur-nāma in English, by Babur, Emperor of Hindustan. – P. 17)

Interferensiya nazariyasida boshqa tilning u yoki boshqa fonemalarini ifodalash uchun tanlovni belgilovchi quyidagi paradigmatic omillar mavjud [6,3]:

1. Fonemalarning ortiqcha farqini oshirib yuborish. Bu yerda aloqaga kirishuvchi tillarning divergent munosabatlari mavjud, ya'ni manba tilning bitta fonemasiga reseptor tilning ikki yoki undan ortiq fonemasi muvofiq keladi. Misol uchun, turkcha fonema /o/ ingliz tilida /ɒ/ yoki /ou/ fonemalari bilan berilishi mumkin.

2. Yetarli darajada bo‘lmagan differensiasiya yoki differensiasiyaning kamligi. Bu manba tilning ikkita yoki undan ortiq fonemalarining reseptor tilning bitta fonemasiga muvofiqligidir. Manba tilning ma’lum fonologik belgilari reseptor til uchun relevant hisoblanmaydi va manba tilning ikki yoki undan ortiq fonemalarini farqlash o‘zlashtirayotgan tilning tizimi uchun ortiqcha hisoblanadi. Misol uchun turkiy tillardan o‘tgan inglizcha o‘zlashtirmalardagi /æ / va /a:/ turkiy tillarda /a/ kabi ifodalanadi, masalan:

shaft *banknote* /bəŋknout/ → *banknot* *sandwich* /'səndwɪtʃ/ → *sandvich* *shaft* /ʃəft/ →
clerk /kla:k/ → *klark*;
park /pa:k/ → *park* *frack* /fræk/ → *frak*.

Ingliz tiliga o'zlashgan turkizmlarning fonetik va grafik jihatdan moslashishini Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon", "O'tkan kunlar", Ushbu holatni Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", Z.M.Boburning "Boburnoma" ("The Bābur-nāma in English, by Babur, Emperor of Hindustan") asarlarini inglizcha tarjimalaridagi va F.Bernabining "A Ride to Khiva" asaridagi ayrim o'zbekcha realiyalar misolida tahlil qilamiz. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerak-ki o'zbekcha deb olingan misollar asli kelib chiqishi arab, fors kabi boshqa tillardan bo'lishi mumkin. Lekin o'zbek tili leksikasida qo'llanilayotganligini hisobga olib, ularni o'zbek tili so'zi sifatida berdik.

Interferensiyaning asosiy hollari quyidagicha sodir bo‘ladi:

1. Substitusiya:

a) o‘zbekcha /i/ → inglizcha /I/ *imom* → *imam* /'ima: m/; *qismat* → *kismet* /'kismet/
...near him sat the imam of the Mahalla, Yunus Mohamed Akhund;...
(A.Qodiriy. Bygone days. – P. 525)

b) o'zbekcha /**ye**/ → inglizcha /**ye**/

bek → *beg*, *bek*, *bey* /*beg*/, /*bek*/, /*bei*/.

In conformity with this resolution, Seid Muzafer shall immediately send to all his Beks the strictest orders to that effect. (Burnaby F. A Ride to Khiva. – R. 408); Very pressingly had Muh. Baranduq Beg and Zu'n-nun Arghun said, " Winter here! " (The Bābur-nāma in English, by Babur, Emperor of Hindustan. – P. 307); Bek/beg/bey — literally "nobleman" or "ruler" of a province, or vilayet. (A.Qodiriy. Bygone days. – P. 619)

2. Differentsiatsiyani oshirib yuborish:

A. O‘zbekcha /a/ amalga oshadi:

1) inglizcha /æ/ bilan;

2) inglizcha/**a:**/bilan,

Masalan: 1) *sandal* → *sandal* /'sændəl/
mahalla → *makhalla*, *mahalla* /'mæhalla/

2) *sart* → *sart* /sa:t/

... and made its way even to the mahalla of Eski Juva. (– P. 203); The people are Sarts. (– P. 618); After reciting the Fatiha for the guests sitting around the coal sandal stove... (A.Qodiriy. Bygone days. – P. 44)

Ingliz tilida urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushganligi sababli o‘zlashma so‘zlardagi o‘zbekcha /a/ ingliz tilida qisqa /æ/ yoki /a:/ fonemasi orqali

berilyapti.

B. O‘zbekcha /o/:

1) inglizcha /ɔ/ bilan;

2) inglizcha /ou/ bilan.

Masalan: 1) *poygachi* → *poygachi* /pɔygatʃi/ *dolma* → *dolma* /'dɔlmə/ *domla* → *domla* /'dɔmlə/

The Margilani domla was an Indian seer. (A.Qodiriy. Bygone days. – P. 502)

2) *toman* → *toman* /'tɔuma:n/

Urg‘usiz holatdagi /a/ esa ingliz tilida /ə/ tovushi orqali berilyapti. Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, deyarli barcha o‘zbek undoshlari fonologik jihatdan to‘g‘ri keladigan inglizcha substitutlarga ega. Darhaqiqat, o‘zbekcha /r/ inglizcha /r/ bilan; o‘zbekcha /k/ inglizcha /k/ bilan almashtiriladi va hokazo.

Shu tariqa ingliz tili sohiblari so‘z o‘zlashtirishda o‘xshash turkiy tovushlarini o‘zlarining fonetik tizimining normalariga moslashtirib olgan. Turkizmlarning fonetik qayta o‘zgartirilishi, eng avvalo, to‘g‘ri kelmaydigan tovushlarni ularga sifati bo‘yicha eng yaqin ingliz tilining tovushlari bilan almashtirishdan iborat bo‘ladi. Ingliz tilidagi turkiizmlarning fonetik rivojlanishi natijasida ular turkiy tovush majmuasiga va prototiplariga mos keladigan yangi tovush komplekslariga ega bo‘ladi.

O‘zlashtirma so‘zning fonetik jihatdan moslashuvi ko‘p qirrali va murakkab hodisadir. Ingliz tilidagi turkiizmlarda urg‘uning o‘rni va xarakteri o‘zgaradi. Bu aloqa qilayotgan ikkala tilning aksentologik modellaridagi farqlarga bog‘liqdir. Ingliz tilida urg‘u turkiy o‘zlashtirilgan so‘zlarda oxirgi bo‘g‘indan boshlang‘ich bo‘g‘inga ko‘chadi:

turkiy *agá* → inglizcha *agha* /'a:ga/; turkiy *radishah* → inglizcha *pasha* /'pa:ʃə/.

Shunday qilib, turkiy leksik elementlar ingliz tiliga o‘zlashtirilganda fonetik assimilyatsiyaga uchragan va til egalari tomonidan ingliz tili leksikasida azaldan mavjud bo‘lgan o‘z ona tilidagi so‘zdek muloqotda qo‘llana boshlaydi. Ular, albatta, reseptor tilning ushbu holatida amal qiladigan barcha qonunlarga, shu jumladan, fonetik qonunlarga bo‘ysunadi.

Xulosa. Shunday qilib, til materiallarining tahlili shuni ko‘rsatadi-ki, turkiy tilidan kelib chiqqan so‘zlarning ko‘pchilik qismi grafik jihatdan ingliz tilining orfoepik normalariga muvofiq rasmiylashtirilgan. Masalaning eng e‘tiborli tomoni o‘zbek tilida unililarning yozuvda cho‘ziqligi tepasiga diakritik belgining qo‘yilishi bilan xarakterlanadi. Hozirgi ingliz tilida unlining cho‘ziqligini faqat transkripsiyada unli tovushdan keyin ikki nuqta qo‘yilishida ajratamiz. Ingliz tilida unlining diakritik belgi bilan berilishi qadimgi ingliz yozuvida bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Крысин Л.П. Иноязычные слова в современном русском языке. – М.: Наука, 1968. – С. 42.
2. Сорокин Ю.С. Развитие словарного состава русского литературного языка (30-90-е годы XIX века). М. - Л.: 1965. – С. 62.
3. Аристова В.М. К истории английских слов в русском языке: Автореф.канд.дисс...филол.наук. Самарканд: 1967; Гутман Е.А. Английские заимствования в современном французском языке: Дисс... канд.филол.наук. – М.: 1963.

– С. 55; Брофман М.В. Французские заимствования в английском литературном языке XVII-XVIII веков: Автореф.канд.дисс... филол.наук. – М.: 1958. – 17 с; Секирин В.П. Заимствования в английском языке. – Киев: 1964. – С. 83-85; Рыбакова Л.М. Романские заимствования в лексико-семантической системе немецкого языка: Дисс...канд. филол.наук. – М.: 1968. – 247 с. ва бошқалар.

4. Унбегаун Б.О. Наблюдения англичанина над русской речью в Московском государстве XVII в. - Сб. “Вопросы теории языка и литературы”, ЛГУ, 1964. – С. 80.

5. Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 55-56.

6. Weinreich U. Languages in Contact, N. Y., 1953. – P. 3.